



“UFQ” ROMANIDAGI “QOCHOQ” NOMLI PARCHASI ASOSIDA MUHOKAMALI, MUNOZARALI YONDASHUV YO‘LLARINI ISHLAB CHIQISH

Shoira Saydullayeva

Surxondaryo viloyati Denov tumani
10-umumta’lim maktabi o’qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14038623>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Oktyabr 2024 yil
Ma’qullandi: 28- Oktyabr 2024 yil
Nashr qilindi: 31- Oktyabr 2024 yil

KEY WORDS

tanqidiy fikrlash, yosh psixologiyasi, Gardner nazariyasi, 8 xil zakovat, eslab qolish, vaqt, izn.

ABSTRACT

Ushbu maqolada “Ufq” romanidan joy olgan “Qochoq” nomli parchasini o’qitish va tahlil qilish bo’yicha muhokamali, munozarali yondashuv yo’llari ishlab chiqilgan. Gardner nazariyasi asosida topshiriqlar tayyorlangan.

Said Ahmadning “Ufq” romani 1964 – 1970-yillarda yozilgan bo’lib, u XX asr o’zbek adabiyotining qimmatli asarlaridan biridir. Asarda trilogiya janrining o’ziga xos g’oyaviy-badiiy xususiyatlari va asosiy janriy belgilari yaqqol namoyon bo’lgan. “Ufq”ning birinchi kitobi — “Qirq besh kun” romanida xalqimizning XX asrning 30-yillarida Katta Farg’ona kanali qurilishidagi qahramonona mehnati, qudratli xalq harakati yorqin aks ettirilgan. Asarning ikkinchi kitobi “Hijron kunlari” deb ataladi. Unda xalqimizning urush davridagi og’ir hayoti, kurashi, vatanparvarligi, mardligi ehtiros bilan hikoya qilingan. Trilogiyaning uchinchi kitobi — “Ufq bo’sag’asida” urushdan so’nggi dastlabki yillardagi xarakterli voqealar, qo’riq va bo’z yerlarni o’zlashtirish harakati tasvirlangan¹. Romanda turfa munosabatlar, taqdirlar yoritilgan bo’lib, ular o’zaro bir-biri bilan mustahkam bog’langan. Asardagi Ikromjon, Jannat xola, Azizxon, Dildora, Asrora, Rahmonberdi tog’a, Inoyat oqsoqol, Nizomjon, Tursunboy kabi xilma-xil obrazlar jamiyatning turli qatlamlarini aks ettiradi. Shuningdek, romanda to’qima obrazlardan tashqari, Yo’ldosh Oxunboboyev, Usmon Yusupov, G’afur G’ulom singari prototiplarning borligi asarni jonlantirib bergan.

Biz tadqiq etayotgan “Qochoq” nomli parcha romanning “Hijron kunlarida” kitobidan olingan bo’lib, umumta’lim maktablarining 8-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan (Sultonmurod Olim, Ahmedov S., Qo’chqorov R., Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik, T., 2019). O’quv rejaga asosan “Said Ahmad ijodi va uning “Qochoq” (“Ufq” trilogiyasidan parcha) mavzusi uchun 3 soat ajratilgan. Ushbu parchada Ikromjonning o’g’li Tursunboyning urushdan qochib kelishi, odamlardan berkinib to’qayzorda yovvoyilashib yashab, fojiali tarzda olamdan o’tishi haqidagi voqelar bayon etilgan. Bu haqida yozuvchi Abdulla Qahhor: “Ufq” qochoq haqidagi roman emas, aksincha, qochoqni bag’riga sig’dira olmagan xalq haqidagi asardir”,- deb romanga yuqori baho bergan edi².

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag'bat, mehr va muhabbat uyg'otish;

- ularni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida, adabiyotga, milliy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;

- ularning boy ma'naviy dunyosini shakllantirish;

- badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o'rganish asosida o'quvchida tanqidiy fikrlashga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;

- ularda har qanday ma'naviy xurujlarga nisbatan sog'lom va baquvvat e'tiqodga tayanadigan immunitetni shakllantirish;

- so'z san'ati vositasida o'quvchining individual va shaxslik fazilatlarini rivojlantirish.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarning bajarilishi zarur bo'ladi:

- o'quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan mehr uyg'otish;

- o'quvchilarning badiiy adabiyotning janr va uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uni tahlil qilishning munosib shakllarini topish va amalda qo'llashga o'rganishlariga erishish;

- o'quvchilarning og'zaki nutqlarini adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojini ta'minlash;

- ularning yozma nutqlarida yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-barangliklardan foydalana olishga oid ko'nikma va malakalarning shakllanishiga erishish;

- adabiy-badiiy asar mohiyatini, uning asosiy nuqtalarini og'zaki va yozma tarzda ifodalay olish, bu haqdagi o'z fikrlarini boshqalarga og'zaki va yozma tarzda yetkazish yo'llarini egallash;


- badiiy asar mazmun va mohiyatini, undagi go'zallik va nafosatni his etishga o'rgatish;

- ulardagi badiiy matnni emotsional tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va analitik tafakkur va ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, adabiyotning boshqa san'at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlari haqidagi tasavvurlarini, ularning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish³.

Yuqoridagi vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun adabiyot darslarining puxta tashkillashtirilishi fan o'qituvchisining kreativ fikrlashiga, tashkilotchilik qobiliyatiga, yetarlicha adabiy bilimlarga ega ekanligiga bog'liq. "Ufq" romani 8-sinf o'quvchilarining yoshiga mos bo'lib, uni to'g'ri tahlil qilish, tushuntirish, tushunish orqali asarning asosiy g'oyasini anglashga erishish mumkin. Bunda o'quvchilarga diniy, tarixiy, geografik, estetik bilimlar bilan bir qatorda mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati kerak bo'ladi. O'quvchilarning har biri alohida shaxs, alohida individ. Ularning har birida uxlab yotgan

qobiliyatlar bo'lishi mumkin. O'qituvchining vazifasi esa ana o'sha mudroq qobiliyatlarni yuzaga chiqarish, ularni yanada rivojlantirishdir.

Badiiy asar tahlili jarayonida xorij tajribasini qo'llash samarali hisoblanadi. Bugungi jahon adabiy ta'limida keng foydalanilayotgan nazariyalardan biri Gardner nazariyasidir. Amerikalik olim Govard Gardnerning 1991-yilda yaratilgan "**Turfa zakovatlar**" (multiple intelligence) nazariyasi asosida o'quvchilarning individual qobiliyatlarini turli xil zakovatlar vositasida yuzaga chiqarish tamoyili yotadi. Gardnerning turfa zakovatlariga asoslangan nazariyasi nafaqat adabiyotda, balki butun bir ta'lim sohasida o'qitishga integrativ yondashuv bo'lib, bunday o'qitish usuli talabalardagi turli xil zakovatlarini yuzaga chiqarishda, biror bir masalaga individual yondashuvda muhim ahamiyat kasb etadi⁴. Darhaqiqat, nafaqat talabalar, balki bu nazariya orqali maktab o'quvchilarining ham turli qobiliyatlarini yuzaga chiqarish mumkin.



Gardnerning turfa zakovatlar nazariyasi inson aqlini bitta qobiliyatga qarash o'rniga sakkiz xil turga ajratadi. U aqlni ma'lumotni qayta ishlash uchun biopsixologik salohiyat deb hisobladi. Nazariyaning ta'kidlashicha, odamlar ma'lumotlarni qayta ishlashning turli usullariga ega, ularning har biri mustaqildir. Gardner tomonidan ta'riflangan sakkiz turdagi intellekt quyidagilarni o'z ichiga oladi: musiqiy-ritmik, vizual-fazoviy, og'zaki-lingvistik, mantiqiy-matematik, jismoniy-kinestetik, shaxslararo, intrapersonal va naturalistik⁵.

Z.Mirzayeva hamda K.Jalilovlar o'z tadqiqotlarida ushbu zakovatlarini aynan badiiy asar tahlili jarayoniga mos tarzda ishlab chiqadi va buning samarali ekanligini ta'kidlaydi. Bular quyidagilar:

1. Lingvistik zakovat (Linguistic Intelligence) – bunda asosan badiiy matn bilan ishlash orqali o'quvchining qobiliyati yuzaga chiqadi.

2. Mantiqiy matematik zakovat (Logical-Mathematical Intelligence) – matematik tafakkurga asoslangan qobiliyat.

3. **Jismoniy harakatga asoslangan zakovat (Bodily-Kinesthetic Intelligence)**– fikrni xatti-harakatlar (tana a'zolari) orqali ifodalash.

4. **Musiqiy zakovat (Musical Intelligence)**– musiqa vositasida o'rganish va o'rgatish orqali qobiliyatning namoyon bo'lishi.

5. **Voqelikni tashqi belgilar orqali ko'rish qobiliyati (Visual-Spatial Intelligence).** Bunday qobiliyatga ega o'quvchilarga muayyan badiiy matnni kartalar, suratlar, illyustratsiyalar, uch o'lchamli modellari, videolar, videokonferensiyalar, televideniye, grafiklar va chartlar orqali o'rgatish tavsiya etiladi⁶.

6. **O'zaro muloqotga asoslangan zakovat (Interpersonal Intelligence)** – Bunday zakovatga ega o'quvchilar badiiy matn anglovida boshqalarning qarashlari, fikr mulohazalariga ham tayanadilar. Atrofidagilarning fikri ularda yangi g'oyalarning tug'ilishiga rag'bat berishi mumkin⁷.

7. **Intrapersonal zakovat (Intrapersonal Intelligence).** Insonning ichki his-tuyg'ular orqali o'rganish qobiliyati.

8. **Naturalistlar (Naturalist),** ya'ni san'at yoki adabiyotda tabiiylik amaliyotiga ega bo'lgan shaxslar. Bunday zakovat egalari badiiy matnni tabiat (bu o'rinda real voqea - hodisalarga asoslanib o'rganish ham nazarda tutiladi) bilan bog'lab o'rganishni ma'qul ko'radilar⁸.

Biz ham quyida tadqiqot obyektimiz bo'lmish "Ufq" romanidan olingan "Qochoq" nomli parchani yuqoridagi 8 xil zakovat asosida tahlil qilishni maqsad qildik hamda shu asosida topshiriqlar ishlab chiqdik.

1-topshiriq. Lingvistik zakovat


1. Said Ahmadning "Ufq" romanidan olingan parchani o'qigach sizning dastlabki fikrlaringiz nima bo'ldi? Ushbu savolga hamma bittadan javob yozadi va bu javoblar yig'ilib muhokama qilinadi.

2. Asardagi sizning e'tiboringizni tortgan so'z yoki jumla qaysi?

3. Asar asosida qanday mavzularda reportaj tayyorlash mumkin? Ulardan birini tanlab olib, yozma axborot matni tayyorlang.

2-topshiriq. Mantiqiy matematik zakovat

1. Nima deb o'ylaysiz, asardagi muammo nimada? Har bir o'quvchi asardagi muammoni topib, izohlaydilar.



2. Asardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini raqamlar orqali baholash. Bunda 5 ballik shkala asos qilib olinadi.

Qahramonlar	Ijobiy	Izoh	Salbiy	Izoh
Jannat xola	5	Mehribon ona,o'zini ayamaydi, kuyunchak rafiq	2	O'g'li haqida eriga aytmadi
Ikromjon				
Tursunboy				
Nizomjon				
Zebi				
Tog'a				

3-topshiriq. Jismoniy harakatga asoslangan zakovat

Ushbu topshiriq quyidagi tartibda bajariladi:

- tarqatmalarga qahramonlar ismlari yoki biror sujet yoziladi;
- o'quvchilardan xohlovchilar chiqib tarqatmalardan birini tanlab oladilar;
- tarqatmada berilgan asar qahramonini yoki sujetni o'z xatti-harakatlari orqali ijro qilib berishlari kerak bo'ladi.

Tarqatmalar

Jannat xolaning
to‘qayda ildiz terib
yurgan holati

Ikromjonning
samovarda “yangilik”
eshitishdan avvalgi va
keyingi holati

Ikromjonning go‘r
qazish jarayoni

Ikromjon bilan
Tursunboyning
qamishzordagi
uchrashuvi

Jannat xola bilan
Tursunboyning
to‘qaydagi suhbat

Zebi Tursunboyning
to‘qaydaligidan xabar
topganida, ularning
suhbati qanday bo‘lar
edi?

4-topshiriq. Musiqiy zakovat

Bundan avvalgi topshiriqda berilgan vazifani bajarish davomida fon uchun musiqa tanlanishi mumkin. Bunda qahramonlardagi ruhiy holat musiqa orqali yanada chuqur ochib berilishi maqsad qilinadi.

5-topshiriq. Voqelikni tashqi belgilar orqali ko‘rish qobiliyati

Ushbu topshiriqni bajarishda suratlardan foydalanish mumkin. Asarda qo‘llangan detallarning rasmlarini ko‘rsatib, izoh so‘raladi va u bilan bog‘liq sujet tahlil qilinadi.



6-topshiriq. O‘zaro muloqotga asoslangan zakovat

1. Zakovatning bu turida sud jarayonini amalga oshirish mumkin. Kimlarni javobgarlikka tortish kerak? Nima uchun? Tursunboynimi, Ikromjonni, Jannat xolanimi yoki butun tuzumnimi? Demak, shu savollarga javob topilishi maqsad qilinadi.

2. Asarning qaysi qismini o‘zgartirishni xohlaysiz va bu bilan qanday yakun

yasamoqchisiz? Savol asosida jonli muloqot tashkil qilinadi.

7-topshiriq. Intrapersonal zakovat

1. Tasavvurlarni ishga solib, quyidagi savollarga javob berish lozim:

-Siz urushdasiz: atrofingizda shiddatli jang bo'lyapti, o'q ovozlari-yu odamlarning alamli faryodlari. Siz Tursunboyning o'rnida bo'lib qolsangiz, qanday yo'l tutardingiz?

-Jannat xolaning o'rnida bo'lganda-chi?

-Ikromjonning-chi?

2. Imkon bo'lganda asardagi qaysi qahramondan intervyu olgan bo'lar edingiz va unga qanday savollar berardingiz?

8-topshiriq. Tabiat bilan bog'liqlikda o'rganish

1. Asardagi tabiat tasvirlariga diqqat qilinadi. Asar qahramonlari bilan ular yashayotgan hudud o'rtasida bog'liqlik bormi? Rasmlar orqali izohlang.

2. Asar voqealari bilan fasllar uyg'unligi bormi?

3. Asarning qaysi o'rinlarida tabiiylik buzilgan deb o'ylaysiz?

O'quvchilarga darslikda berilgan parchadan tashqari asarning to'liq matnini o'qib chiqish tavsiya etiladi. Natijada badiiy asar tahlilini kengroq olib borishga, bu esa o'quvchilarning dunyoqarashini, tanqidiy fikrlash darajasining rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun biz ham "Ufq" romanining to'liq matnini o'qishni vazifa qilib beramiz.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv jarayonida har bir o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom fikrlashi, har xil zararli oqimlarga kirib ketmasligi, hayotda o'zining munosib o'rnini topishi uchun ularning mustaqil fikri bo'lishi nihoyatda zarur. Albatta, mustaqil fikr deganda, sog'lom, bunyodkor fikrlash nazarda tutilyapti. Bunda ularning tanqidiy munosabati alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi.– T.: Barkamol fayz media, 2018.–B.117.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi (An'anaviylikdan zamonaviylikka),– T., 2020.–B.75.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Ona tili, Adabiyot, O'zbek tili (5 – 9-sinflar),– T., 2010.
4. Said Ahmad, Ufq trilogiya,– T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.– B.295.